

This is not registered version of TotalDocConverter

Ishtidan keyin qaytib pochta versiyasiga kelganda qog'ozga ko'zim tushdi. Olib qaragam - "Xabarnoma". Unda katta summa olishim bildirilgan edi. Suyunib ketdim. Negaki keyingi vaqtlarda qarzga botib, siqilib yurgan edim. To'rtinchi qavatga qanday ko'tarilganimni bilmayman. Eshikni ochgan xotinimga nuqul tirjayaman.

- Namuncha, og'zingiz qulog'ingizda? - dedi xotinim taajjub bilan.

- "Xabarnoma" kelibdi. Qara, qancha olarkanman! - dedim qog'ozni qo'lga tutqazib.

Xotinim qog'ozdagi summani ko'rib, yal-yal yonib ketdi.

- Qayerdan kelibdi?

- Ertaga pochtaga chiqqanda bilamiz-da!..

Kayfiyatim a'lo. Kechki ovqatni ham ishtaha bilan yedim. Xotin-ku, o'zini qo'yarga joy topolmaydi.

- Bu puldan menga "lama" palto olib berasiz! - dedi pinjimga suqilib. - Arzonroq tilla zanjir ham. Qo'shnilarning hammasida bor, bitta menda yo'q.

- Shoshma, bitta-bitta-da! - dedim o'zimcha nimalarnidir cho'tlab. - Birinchi navbatda issiq suv, sovuq suv, gaz haqini to'lash kerak. Keyin o'zimga bitta kostyum-shim olay. Besh yildan buyon bitta kostyum-shimdaman. Uyat emasmi?

- Xasislik qilmang, pul hammasiga yetadi. Kommunal to'lovlarni keyinga sursak hech nima qilmaydi. Ikki-uch yilligini to'lamaganlar ham bor-ku.

- Ko'rmaganning ko'rgani qursin! - dedim qovog'imni uyub. - Pulni ko'rsang, darrov yo'qotmasang ko'ngling joyiga tushmaydi. "Pulni xotiningga berding nima, o'tga tashlading nima?" deganlari rost-da.

Bundan xotin biroz pastga tushdi. "Mayli, tilla zanjir bo'lmasayam, palto olib berasiz!.. Qachongacha yupqa plashda yuraman?"

- Men rozi, - dedim iyib. - Ertaga pulni olaylik, yakshanbada "Ippodrom"ga boramiz...

Xotin meni quchoqlab oldi.

- Bo'ldi, - dedim saxiyilgim tutib, - palto, tilla zanjir, yana bir-ikkita yangi ko'ylaklardan ham olib beraman, keyin bunaqa pul qo'limizga tushadimi, yo'qmi? Borida, kam-ko'stingni butlab ol!

- Nimaga tushmasakan! Katta pul kelishi tushimda ayon bo'lgan edi-ku, - dedi xotin yaqinda ko'rgan tushini yana bir bor eslatib. - Undan keyin har gal choyni ko'pigini boshingizga surtirganim foyda berdi. Men bir nima bilamanki, gapiraman. Siz esa "irim"laringni qo'y" deb, qaysarlik qilardingiz. Ana, foydasi bo'larkanmi?

- Ha, endi, - dedim talmovsirab, - yuzdan biri to'g'ri kelib qoladi-da...

Ertalab dabdaba bilan eru xotin pochtaga chiqdik. Navbatimiz kelganda, kassir ayol bir pasportimga, bir "xabarnoma"ga qaradi.

- Kechirasiz, - dedi u pasportimni qaytarib berarkan, - bu qo'shningizga tegishli qog'oz-ku, adashib sizning pochta qutingizga tushib qolgan ko'rinadi. Malol kelmasa, qo'shningizga berib qo'ysangiz.

Shunday jahlim chiqdiki, lotereyasiga bir nomer yetmagan kishiday ingrab yubordim.

- Men pochtaga emasman! - dedim baqirib.

Xotinning-ku, ahvoliga maymunlar yig'ladi. Ikkalamiz jimgina uyga qaytib keldik. Hafsalimiz pir bo'lib turganda, telefon jiringladi. Go'shakni olsam, qaynonam. Xotin ko'zimni shamg'alat qilib, kechqurun onasiga "xushxabar"ni yetkazgan ekan, go'shakni qiziga tutqazdim.

Oradan bir hafta o'tdi. Birinchi aprel kuni ishdan qaytayotsam, qo'shnimiznikida janjal. Nima gap ekan, deb qaragam, er-xotin urishishyapti.

- To'layapman deb. Aldab yurgan ekansan-da! - dedi er xotining tumshug'iga bir parcha qog'ozni tirab. - Bir yillik kvartira haqi to'lanmagan! Qani men bergan pullar?

Xotini bechora tirishib o'zini oqlaydi.

- To'laganman! Hech qayerdan qarzimiz yo'q! Birov "Birinchi aprel" qilib hazillashgan chiqar!..

- Qo'yinglar, urishmanglar, eshitgan quloqqa yaxshimas, - dedim va qo'shning qo'lidan qog'ozni olib tirjaydim. - Afandilar! Qog'ozdagi familiyaga qarabsizlar-u, uy nomeriga e'tibor bermabsizlar-da...